

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA, DEFEKTOLOGIYA, MTBS
VA MUSIQA BO'LIMINING**

**PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA
FAKULTETI**

PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

**“Umumiy o`rta ta`lim yuqori sinf o`quvchilarida fuqarolik
madaniyatni shakllantirish” mavzusida bajarilgan**

KURS I SH I

Bajaruvchi: Ahmadova A

Ilmiy rahbar: Bozorova G

Jizzax – 2013

MUNDARIJA

KIRISH_____

1. O`quvchilarda fuqarolik madaniyatni shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslari_____
2. Ta`lim muassasalarida o`quvchilarning fuqarolik madaniyatini shakllantirish amaliyoti_____
3. O`quvchilarning fuqarolik madaniyatini shakllantirishda pedagogik samaradorlikga erishish yo`llari_____
4. O`quvchilar fuqarolik madaniyatini yuksaltirishda ta`lim va ma`naviy-ma`rifiy tadbirlarning roli _____
- 5 O`quvchilar fuqarolik madaniyatini shakllantirishda milliy ma`naviyatning ahloqiy xususiyatlari_____
- 6 Yuksak fuqarolik ma`naviyatiga ega o`quvchilarni tarbiyalashning samaradorligi_____

UMUMIY XULOSA VA TAKLIFLAR_____

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI_____

ILOVALAR_____

KIRISH

Mustaqillik yillarida O'zbekiston ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlar huquqiy jamiyatni barpo etishga yo'naltiriladi. Huquqiy jamiyatni barpo etishning asosiy shartlaridan biri fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning fuqarolik madaniyatini shakllantirishdir. Fuqarolik madaniyati shaxs onginnig yuksak darajada rivojlanganligi bo'lib, u oila, ta'lim muassasalari hamda ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'z asarlarida fuqaroni "vatan jonkuyari" tarzida ifodalar ekan, u o'zida xalqi, uning an'analari, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat ko'rsatishdek sifatlarni o'zlashtira olishi zarurligini ta'kidlaydi. Jumladan, "O'z xalqiga, uning an'alariga tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z vatanining jonkuyarlarini tarbiyalash mumkin emas"[6].

Fuqarolik shaxsning muayyan jamiyatga mansubligini ifodalovchi holat bo'lib, u turli davrlarda hamda ijtimoiy hayotda etakchi o'rin tutgan qarashlar nuqtai nazaridan baholab kelingan. Ijtimoiy tuzumning eng yuqori shakli bo'lgan huquqiy jamiyatda fuqarolik shaxs qadr-qimmatini ta'minlash, uning sha'ni, ornomusi va haq-huquqlarini himoyalashining huquqiy kafolati sanaladi.

Kurs ishning maqsadi: Umumiy o'rta ta'lim yuqori sinf o'quvchilarida fuqarolik madaniyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish.

Kurs ishining ob'ekti: Umumiy o'rta ta'lim yuqori sinf o'quvchilarida fuqarolik madaniyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish jarayoni.

Kurs ishining predmeti: Umumiy o'rta ta'lim yuqori sinf o'quvchilarida fuqarolik madaniyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarni o'rganishning mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Kurs ishining vazifasi:

- O'quvchilarda kasbga yo'naltiruvchi bilimlar bilan fuqaro madaniyatiga doir bilimlarni uyg'unlashtirish;
- O'quvchilarda erkin va mustaqil fikrlash uchun shart-sharoit yaratish;
- O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish;
- Innovation texnologiya usullaridan o'rinli va mahorat bilan foydalanish;

1. O`quvchilarda fuqarolik madaniyatni shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslari

O`zbekiston taraqqiyotining bosh yo`li jamiyatni demokratlashtirish va fuqarolik davlatni qurishdan iborat. O`zbekistonda demokratik jamiyatni qurish eng avvalo, aholini o`zbek xalqining ming yilliklar tarixi, ma`naviy taraqqiyoti, buyuk madaniyati, ma`naviy meros va boy an`analari bilan yaqindan tanishtirish, ular to`g`risida etarli bilimga ega bo`lishlari uchun sharoit yaratish zarur. Ana shunday sharoitlardan biri – bu ta`lim jarayonida o`quvchilarni milliy tarix, madaniyat va turmush tarzi bilan yaqindan tanishtirib borish, o`quv fanlari va ma`naviy – ma`rifiy tadbirlar mazmuniga milliy qadriyatlarni singdirish sanaladi.

Fuqarolik madaniyatini shakllantirish muammosini tadqiq qilar ekanmiz, asosiy e`tibor fuqarolik tarbiyasini samarali tashkil etish, bu jarayonda amalga oshiruvchi vazifalarni aniq belgilash, fuqarolik negizidan aks etuvchi va ularning mohiyatini yoritishga qaratildi. Mavjud adabiyotlarni o`rganish va ularda ilgari surilgan g`oyalar bilan tanishish fuqarolik, fuqarolik ma`suliyati, muayyan davlatga mansublik asosida fuqaro huquqlarini himoya qilish shartlari kabi masalalar ko`plab faylasuf, huquqshunos, pedagog va psixolog olimlar tomonidan turli yo`nalishda o`rganilganligini ko`rsatadi.

Fuqaroni tarbiyalash va unda fuqarolik madaniyatini shakllantirish murakkab hamda davomiylik xususiyatiga ega jarayon hisoblansa-da, o`quvchilik yillari bu jarayon uchun poydevor qo`yadi. Kasb-hunar kollejlarida “Milliy istiqlol g`oyasi va ma`naviyat asoslari”, “O`zbekiston tarixi”, “Konstitutsiya asoslari”, “Iqtisodiy bilim asoslari”, shuningdek, ta`lim muassasasining yo`nalishiga ko`ra bir qator mutaxassislik fanlari o`quvchilarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Binobarin, bu fanlarni o`qitishda o`quvchilar barkamol shaxs qiyofasida aks etuvchi ma`naviy-axloqiy va boshqa insonlarga hurmat bilan qarashda ifodalanadi. Uning tarkibiy elementlari axloqiy tarbiya, vatanparvarlik tarbiyasi, huquqiy tarbiya kabilardan iborat bo`lib, ular o`zaro bog`liq holda tarkib topadi.

Fuqarolik madaniyati davlatning ob'ektiv xolatiga, jamiyatda demokratiya va insonparvarlikning rivojlanish darajasiga, har bir fuqaro nuqtai nazarining, o'z-o'zini anglashining shakllanishiga bog'liq.

Fuqarolik madaniyati o'quvchilar tomonidan fuqarolik va bu holatni ifoda etuvchi sifatlar mohiyatini chuqur anglay olishi asosida shakllanadi. Shu jihatdan olganda o'quvchilarni turli mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayoni fuqaro tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan xatti-harakatlar, ularning ijtimoiy-g'oyaviy xususiyatlari bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiqdir. Bu o'rinda kasb-hunar kollejlari tashkil etilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ham muhim o'rin tutadi.

Umumiy o'rta ta'lim yuqori sinf o'quvchilarida fuqarolik madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy muhitning ta'sirini ham hisobga olish kutilgan natijani qo'lga kiritishga imkon yaratadi. Zero, ijtimoiy muhitda ro'y berayotgan holatlar, ularning yo'nalishi, mazmun va mohiyati, o'quvchilarning fuqaro sifatida shakllanishlariga bevosita ta'sir etadi.

O'quvchining fuqarolik madaniyatini shakllantirishning negizi, ijtimoiy-milliy tarbiya va pedagogik jarayon maqsadlarining birligi bugungi O'zbekistonning jahon miqyosida xurmat qozonishiga sabab bo'lmoqda.

Mustaqil O'zbekiston tarbiya siyosatini belgilovchi tamoyillardan yana biri – milliy zamonaviylikdir. Masala ana shu tarzda qo'yilishining qator sabablari bor. Birinchidan, bu tamoyil ta'lim va tarbiya yuzasidan o'zbek va boshqa xalqlarining tub moddiy va madaniy ehtiyojlarini ifodalaydi. Bugungi O'zbekiston (Fransiya, Olmoniya, Yaponiya kabi) milliy davlatdir. Shuning uchun "millat", "milliylik" tushunchalari mustaqil O'zbekistonda nafaqat etnik, balki yangi – ma'naviy va madaniy ma'no kasb etishi qonuniydir. Buni nazariy va amaliy jihatlaridan ishlab chiqish, amalga oshirish tadqiqotchilardan yuqorida zikr etilgan tarbiyaviy maqsadni, ya'ni "o'zbek milliy maktabi o'qituvchining botiniy va zoxiriy siymosi"ni bilishni taqozo etadi. Bu esa, eng avvalo, O'zbekiston pedagogika fanidan "Milliy va zamonaviy o'zbek bolasi siymosi qanday bo'lishi kerak", degan savolga aniq javob talab qilmoqda.

Har bir kishining ma`lum milliy muxitdagi xulq-atvorini tushunishda uning bolalikdagi milliy tarbiyaviy muxiti nixoyatda katta ahammiyatga ega. Chunki, bolalarning tarbiyaviy ta`sirini qabul qilish jarayonini va ota-onalarning fe`l-atvorlari orasida izchil aloqa mavjud. Tarbiyaning milliy xususiyat kasb etishida bir avloddan ikkinchi avlodga o`tib keluvchi an`analar, marosim, udum, ishlab chiqarish borasidagi hamda xayotiy tajribalar, xulq-atvor shakllari, bollalarga, o`smirlarga, qadriyatlarga munosabatlarning o`ziga xosligi hal qiluvchi rol o`ynaydi.

Tarbiyaning milliy xususiyati unda odob-axloq me`yorlari qat`iy belgilab ko`yilganligi va mazkur me`yorlarning ota-ona va bola o`rtasidagi munosabatlar mazmunida namoyon bo`lishi bilan tavsiflanadi.

Milliy tarbiya masalasi jahonning turli mamlakatlarida, turli davrlarda, ayniqsa milliy mustaqillikka erishgach, Sharq mamalkatlari olimlari tomonidan chuqur muhokama qilingan. Masalan, atoqli Misr pedagoglaridan Al Xusri bu xaqda: “Milliy tarbiya bir tomondan, mulkdorlar, boylar orasida mavjud “o`z manfaatlarini millat manfaatlaridan yuqori qo`yish va ochko`zlikka intilish bo`lsa, ikkinchi tomondan, mutaassib ruhoniylarning taraqqiyotga eltuvga ilg`or g`oyalarga dushmanligiga qarshi kurashda samarali qurol bo`lib xizmat qiladi.” [23], deb yozadi.

O`zbek bolasining botiniy va zohiriy siymosi – bu milliy tarbiyani hayotga tatbiq qilish sari qo`yilgan birinchi qadam bo`ladi.

Xo`sh, milliy tarbiya maqsadi yoki “o`zbek bolasining” siymosi qaysi manbaalardan kelib chiqib belgilanadai?

U avvalo o`zbek halqi ongidagi hayot ma`nosini, insonning yashashdan maqsadi nima ekanligi, odam qanday yashamog`i kerakligi haqidagi tasavvurdan, har bir o`zbek ota-ona orzularining ilmiy-nazariy umumlashtirishidan kelib chiqib belgilanadi. Halq orasida millionlab o`zbeklarning axloqiy talabalariga javob beradigan ana shunday o`zbek bolasining ramziy siymosi bor. Bu siymo ukrain, bolgar, qozoq va boshqa halqlar milliy ongida ham bor. Qadimiy elatlar, etnoslarda ham, hozir ham odamga “yaxshi”, “yomon” deb baho berishda ana shu ideal odam

siymosidan kelib chiqilgan. Demak, Milliy tarbiya maqsadi – xalqimizning oʻz farzandlarining qanday kishilar boʻlib etishishlari haqidagi orzu-umidlari ning pedagogik inʼikosidir. Oʻzbek xalqi oʻz farzandlari uchun ideallarni xalq pedagogikasi, maqol, doston, qoʻshiq, ertak, sanʼat asarlarida aks ettirgan. Ulardan ijodiy foydalanishimiz zarur.

Oʻzbekiston ichki va tashqi siyosati, iqtisodiy taraqqiyoti talabidir. SHu tufayli xalqimiz milliy ongidagi ideal oʻzbek bolasi oʻtgan asrdagi oʻzbek bolasidan keskin farq qiladi. Shuning uchun hozirgi oʻzbek bolalarining qanchalik darajada milliy madaniylashganini tadqiq qilmoq, ularni manqurtlik, kosmopolitizm, xar xil aqidaparastlik va boshqa illatlardan himoyalashni doimiy asosga koʻyish payti keldi. Oʻzbek fuqarosi siymosini yaratish va bu siymo ham davlat, ham xalq , ham oʻquvchilarni qoniqtirishi uchun milliy tarbiyaning huquqiy – meʼyori, soʻsiologik tadbirlarni ishlab chiqmoq kerak.

Mustaqil Oʻzbekiston maʼnaviy xayotidagi katta yutuqlardan biri – vijdon erkinligidir. Ana shundan kelib chiqib, mlliylikni toʻgʻri va chuqur tushunishning qanchalik maqsadga muvofiqligini, mustaqil Oʻzbekiston qarshisida turgan muammolarni muvaffaqiyatli xal qilinishiga yordam bera olish-olmasligini muhokama qilish kerak. Oʻzbek oʻgʻil-qizlari zamonaviy, komil inson siymosiga ega boʻlmoqlari darkor.

Milliy tarbiya, jadid bobolarimiz idrok etganidek, taʼlim va tarbiyani boshqa ʻivilizatsiyalarga moslashtirish emas, balki dunyodagi ilgʻor ʻivilizatsiyani oʻrganib, uni milliy madaniyatga xizmat ettirish, taʼlim va tarbiyani yangi sharoitda, mustaqillikni mustaxkamlash talablari bilan boyitib, amalga tatbiq etishdir.

“Milliy tarbiya ” tushunchasi koʻp qirrali boʻlib, uning:

- milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yoʻnaltirilgan tarbiyaviy faoliyat;
- umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli;
- xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish (YUNESKO tamoyili) vositasi;

- O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi maqsad, vazifa va tamoyillarining tarkibiy qismi;
- turli millat bolalarini xar tomonlama rivojlantirish jarayonining xususiy, ma'naviy manbai ;
- o'quvchilarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go'zallik, iqtisodiy, ekologiya va boshqa yo'nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili;
- millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash va buning natijasida O'zbekistonda umumfuqaroviy totuvlikka erishishning insonparvarlik yo'li va vositasi;
- ijtimoiy-tarbiya va maktab tarbiyasi uyg'unligining pedagogik sharti;
- insoniyatni umumbashariy uyg'unlikka olib borishning pedagogik yo'li;
- ijtimoiy-ma'naviy jabhada milliy xavfsizlikni ta'minlashning strategik ob'ekti va vositasi ;
- o'quvchilarda milliy (avto va getero) stereo tiplarni maqsadli shakllantirish, ma'naviy boyitish jarayoni ekani shundan dalolat beradi.

Milliy tarbiyaning yuqoridagi yo'nalishlarni qamrab oluvchi tizimi hukumatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish kontseptsiyasi qoidalariga to'la mos keladi. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, milliy tarbiyaning bosh maqsadi yuksak ma'naviyatli fuqaroni shakllantirishdir.

Fuqaroning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qilish ma'naviyatning yana bir muxim xususiyatidir: "Vijdon pokligi va bedorligi asrlar, zamonlar osha inson ma'naviyatining tayanch ustunlaridan biri bo'lib kelmoqda. Jamiyatning xayotida adolat va xaqiqat, mexr-shavqat, insofu diyonat kabi tushunchalarni qaror toptirishda aynan mana shu omilning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Vijdoni uyg'oq odam yon-atrofida bo'layotgan voqealarga, yordam va ko'makka muxtoj insonlarning muammolariga, adolatning toptalishiga befarq qaray olmaydi. Ayniqsa, el-yurt manfaatiga zarar etkazadigan yovuz xatti-xarakatlarga xech qachon chetdan jim qarab turolaydi. Bunday xolatlarni

ko`rganda vijdoni qiynaladi, doimo yonib-kuyib yashaydi, qanday qilib bo`lmasin, ularni bartaraf etishga intiladi, kerak bo`lsa, bu yo`lda xatto jonini xam fido qiladi.”

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytish mumkinki, odamzodning ruxan pok, irodasi baquvvat, iymoni butun, vijdoni uyg`oq bo`lib yashashi fuqaro xayotining tom ma`nodagi mazmunini tashkil etadi.

Ma`naviyat va milliy tarbiyaning o`zaro uyg`unligini ko`rib chiqar ekanmiz, milliy tarbiya mazmunini eng yaxshi o`zbek oilalarida amal qilgan va amal qilib kelayotgan tarbiya mazmunini, shuningdek, mustaqillik sharoitida davlat va jamiyat maktab tarbiyasiga qo`ygan talablardan mujassamlashgan fazilatlar xosil qilishini ta`kidlab o`tish zarur[10]. Muayyan fazilatlarning izchil, turli vaziyatlarda, turli vositalar yordamida singdirilib, tuzatilib, takomillashtirib borilishi, pirovard natijada, davlat va jamiyat, oila, mahalla, ta`lim muassasalari uchun yuksak ma`naviyatli fuqaro qiyofasida mujassamlashadi. Mazkur jarayonda ma`naviyatni shakllantirigan boshqa mezonlar – ma`naviy meros, madaniy boyliklar, ko`xna tarixiy yodgorliklar, xalq og`zaki ijodi, ta`lim-tarbiya bilan birgalikda oila alohida dolzarblik kasb etadi.

2. Ta`lim muassasalarida o`quvchilarning fuqarolik madaniyatini shakllantirish amaliyoti

Fuqarolik madaniyatini shakllantirish aniq maqsadga qaratilgan yaxlit pedagogik jarayon bo`lib, bu jarayonda quyidagi vazifalarni hal qilish muhim ahamiyatga ega.

Har bir inson muayyan davlat hududida yashaydigan va uning bu davlatga dahldorligi “fuqarolik” tushunchasi yordamida ifodalanadi. Fuqarolik – o`ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga ega bo`lgan muayyan davlatga mansublikni anglatuvchi ijtimoiy –huquqiy maqom sanaladi. Fuqarolik holati davlat ahamiyatiga ega bo`lgan me`yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi va

fuqaroning haq-huquqlari, or-nomusi, sha'ni, obro'si ularga muvofiq mamlakat ichkarisiga hamda xalqaro maydon himoya qilinadi.

Fuqarolik shaxsning muayyan haq-huquqlargagina emas, shu bilan birga ma'lum burch va majburiyatlarga ham egaligini ifodalaydi. SHunga ko'ra fuqarolik madaniyati negizida shaxsning o'zi ega bo'lgan haq-huquqlardan foydalana olishigina emas, balki zimmasidagi burch va majburiyatlarni ado etishi bilan ham belgilanadi.

Demak fuqarolik madaniyati shaxs jamiyatning faol a'zosi sifatida ma'lum haq-huquqlarga ega bo'lish bilan birga zimmasiga burch va majburiyatni vijdonan ado etishning yuqori darajasidir.

Fuqaro madaniyatining tarkibiy elementlarini asoslash "fuqaro" tushunchasi quyidagi pedagogik ta'rifni berish imkoniyatini yaratadi: fuqaro – bu o'zida quyidagi sifatlarni namoyon eta oladi: bu burchi va majburiyatlarini chuqur anglovchi, jamiyat hayotini yo'lga qo'yishda faol ishtirokchi, jamiyat oldida turgan joriy va istiqbol vazifalarni hal etishda alohida fidoyilik namunalarini ko'rsatuvchi, mamlakat qudratini mustahkamlash yo'lida moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi, milliy qadriyatlarni asrab-avaylovchi, milliy an'analarga sodiq, millat vakillari tomonidan xalqaro maydonlarda qo'lga kiritilayotgan yutuqlardan faxrlana oluvchi, millat va mamlakat obro'si uchun kurashuvchi, Vatan mudofasini ta'minlovchi shaxs[17,23].

Ta'lim muassasalari o'quvchilarida fuqarolik madaniyatini shakllantirishning manbalari va metodik ta'minotini o'rganish natijasida bu borada muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillar asoslandi. Quyidagi omillar ta'lim muassasalari o'quvchilarida fuqarolik madaniyatini shakllantirishda ustuvor o'rin tutadi:


- 1) ijtimoiy-g'oyaviy omillar: jamiyatda shakllangan ma'naviy-axloqiy muhit; ijtimoiy munosabatlar mazmuni va unda etakchi o'rin tutuvchi milliy g'oya asoslari; tarixiy meros; o'tmish saboqlaridan chiqarilgan xulosalar; xorijiy mamlakatlar tajribasi; ta'lim muassasalari faoliyatining mazmuni va

yo`nalishlari; jamiyat a`zolarining turli sohalarda ko`rsatgan qahramonlik namunalari; ijtimoiy-g`oyaviy mazmundagi adabiyotlar;

- 2) iqtisodiy omillar: mamlakatning er usti va er osti boyliklari; jamiyat taraqqiyotining iqtisodiy yo`nalishlari; erkin raqobatga asoslangan ishlab chiqarish munosabatlari; jamiyat fuqarolarining yangicha iqtisodiy tafakkurga ega bo`lishlari; aholi mehnat va ishlab chiqarish jarayoniga nisbatan ijtimoiy munosabatning qaror topganligi; ishlab chiqarish jarayonida erishilgan yutuqlar;
- 3) madaniy omillar: milliy-madaniy meros namunalari; ilm-fan, texnik va texnologiya taraqqiyoti, bu yo`nalishda yaratilgan kashfiyotlar; ilmiy-fan, san`at va sportda erishilgan jahonshumul yutuqlar.

Bitiruv malakaviy ishning muammosini nazariy jihatdan o`rganish ta`lim muassasalari o`quvchilarida fuqarolik madaniyatini shakllantirish jarayonini quyidagi andoza asosida tashkil etish maqsadga muvofiqligini ko`rsatdi.

1.2.1 - rasm



О`quvchilarida fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ustuvor o`rni

Inson tarbiyasining muxim yo`nalishi - g`oyaviy tarbiya bo`lib, u inson ongi va tushunchalari tizimida xayot xaqidagi falsaviy, siyosiy, xuquqiy, diniy,

estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarini maqsadli shakllantirish jarayoni demakdir. Chunki xar qanday tarbiyaviy jarayon oxir-oqibat, o'z maqsad-moxiyatiga ko'ra g'oyaviy tarbiyadir. Bu esa tom ma'noda mafkuraviy tarbiyaning poydevoridir. Demak mafkurasiz inson, gurux, millat, xalq, jamiyat bo'lishi mumkin emas.

Shu sababdan xam mamlkatimiz buyuk kelajagi shartlaridan biri o'quvchi, talaba va yoshlarda milliy mafkura tushunchasini shakllantirish, ularni milliy g'oyaga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iboratdir.


Har bir mamlakatning yoshlar tarbiyasidagi o'z tizimi mavjud. Mustaqillikka erishgach, ko'pgina mamlakatlar ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning asosan uch yo'li – **milliy fundamentalizm** – o'tmishdagidek yashash, **milliy modernizm** – milliy zamonaviylashuv, **milliy reformizm** – boshqacha (masalan, ovro'pacha, amerikacha...) shakl va mazmun kasb etishiga duch keladilar. O'zbek xalqining tarixda millat sifatida o'zligini mukammal saqlashi, jaxon qivilizatsiyasidagi peshqadamlikka erisha olishini qaysi yo'l ta'minlay oladi? "Jamiyat ma'naviy inqirozga yuz tutgan, millatni millat qiladigan narsalar butunlay toptalgan vaziyatda... [3]" bu yo'l milliy-madaniy taraqqiyotning modernistik tarzi, ya'ni milliy zamonaviylashuv bo'ldi.

Endi masalaning amaliy tomoniga to'xtalsak. Tabobat va tarbiyaning vazifalari qaysidir ma'noda o'xshash bo'ladi: tabib fuqaro tanasini, pedagog fuqaro ma'naviyati, fazilatlarini davolaydi. Fazilatlardagi o'xshashlik esa odamlarni yaqinlashtiradi. Ana shu o'xshashlik, bir-birini so'zsiz tushunish va qo'llab-quvvatlash bizning kelajagi buyuk millatimmizga dalildir.

Bu ma'naviy tarbiya – umummilliy birlik, baynalminal do'stlik, vatanparvarlik tarbyasining natijasi bo'ladi. Milliy ma'naviyatning umumbashariy qadriyat ekanligi, tarbiyada uni chetlab o'tish ko'ngilsiz oqibatlarga olib kelishi mutaraqqiy davlatlar olimlari tomonidan tan olinmoqda. Fuqaroning axloqiy qadriyatlarni o'rganish (aksikologiya) masalasi ta'limda dolzarb muammolardandir.

Yoshlar axloqiy, ma'naviy tarbiyasi – umummilliy birlik, baynalminal do'stlik, vatanparvarlik tuyg'ularining natijasi sifatida namoyan bo'ladi. Milliy ma'naviyatning umumbashariy qadriyatlarning tarkibiy qismi ekanligi, tarbiyada uni chetlab o'tish ko'ngilsiz oqibatlariga olib kelishi va fuqaro axloqiy qadriyatlarni o'rganishdagi akseologik ahamiyatini o'rganish pedagogikaning muhim masalaridandir. Ushbu jarayonni quyidagi chizma orqali tushintirish mumkin.

1.2.2 - rasm



Milliy ma'naviyatning umumbashariy qadriyatlar tarkibi

Har bir mamlakatning yosh avlod tarbiyasida o'z milliy tizimi mavjud. Mustaqillikka erishgach, mamlakatimiz ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning asosan uch yo'li, shakl va mazmun kasb etishiga duch keldi. (1.2.2 - chizma)

Ma'naviy barkomol, axloqan etuk fuqaroni shakllantirish va milliy tarbiyaning o'zaro uyg'unligini ko'rib chiqar ekanmiz, milliy tarbiya mazmunini o'zbek oilalarida amal qilgan va amal qilib kelayotgan tarbiya mazmunini, shuningdek, fuqoralik jamiyati sharoitida davlat va jamiyatning maktab ta'limi va tarbiya jarayoniga qo'ygan talablardan mujassamlashgan fazilatlar hosil qilishini ta'kidlab o'tish zarur. Muayyan fazilatlarning izchil, turli vaziyatlarda, o'rgatilayotgan fanlar, tarbiya vositalari yordamida yoshlar ongiga singdirilib, takomillashtirib borilishi, pirovard natijada, oila, mahalla, ta'lim muassasalarining hamkorlikdagi faoliyatining ijobiy natijasi, ya'ni yuksak ma'naviyatli fuqaro qiyofasida mujassamlashadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, hali ham mamlakatni demokratik, huquqiy, insonparvar jamiyat qurishdan iborat strategik yo'ldan qaytarishga umidvor bo'lgan kuchlar yo'q emas. Ayniqsa so'nggi paytlarda mavjud muammolarga yana

boshqa muammolar qo`shilmoqda. Xususan, hozirda G`arb olamida “egoentrizm” va “erkinlik niqobi ostidagi axloqsizlik falsafasi” keng tarqalmoqda, bu narsa bizga ham muayyan darajada kirib kelmoqda[21].

1.2.3 –chizma



Globalashuv natijasida ma`naviy tahdid

“Egoentrizm” - xudbinlikning bir ko`rinishi bo`lib, faqat o`zini, o`z manfaatlarini o`ylab yashash, boshqa hech narsani tan olmaslik. Jaholat va aqidaparastlikdan aslo qolishmaydigan g`arbona axloqsizlikni esa aksariyat g`o`r, tajribasiz yoshlar “Evropa madaniyati” va “Erkinlik” sifatida qabul qilmoqdalar. “Men O`zbekiston fuqarosi emasman-men jahon fuqarosiman”, “Mening ota-onam oldida hech qanday mas`uliyatim yo`q, mas`uliyatim faqat farzandlarim oldida”[24,25], kabi soxta falsafalarning paydo bo`lishi dunyoda mafkuraviy jarayonlarning tobora keskinlashayotganligidan dalolatdir. Bunday soxta falsafiy qarashlar yoshlarning millat, Vatan kabi qadriyatlarga bo`lgan munosabatini o`zgartirib yubormoqda.

So`nggi paytlarda globallashuv natijasida ma`naviy tahdid – tajovuzlar salmog`i ham ortib borayotganligini ta`kidlash lozim. “Yosh avlodimizni turli ma`naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, - deydi yurtboshimiz, - nafaqat xalqimizni ulug`laydigan buyuk xususiyatlar, ayni uning rivojlanishiga salbiy ta`sir ko`rsatgan, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma`qul odatlar haqida ham ochiq so`z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug`chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish to`g`risida o`ylashimiz lozim”[3].

Ayni paytda I.A.Karimov salbiy xususiyatlardan yana biri hasad, shuningdek, sotqinlik, irodasizlik, beparvolik kabilar to`g`risida ham fikr yuritadi. Ular, shubhasiz, ma`naviy hayotimizga jiddiy xavf solayotgan illatlar hisoblanadi. Bunday illatlardan xalos bo`lishning eng to`g`ri, maqbul yo`li-ma`naviyat, shaxsning ma`naviy olamini yaratishdir.

3. O`quvchilarning fuqorolik madaniyatini shakllantirishda pedagogik samaradorlikga erishish yo`llari

Fuqaro o`z burchi va majburiyatlarini chuqur anglovchi, jamiyat hayotini yo`lga qo`yishda faol ishtirokchi, huquqiy jamiyat oldida turgan joriy va istiqbol vazifalarni hal etuvchi, jamiyatni boshqarishda bevosita va bilvosita ishtirok etuvchi, mamlakat qudratini mustahkamlash yo`lida moddiy va ma`naviy boyliklarni yaratuvchi, milliy qadriyatlarni asrab avaylovchi, milliy an`analarga sodiq, millat vakillari tomonidan xalqaro maydonlarda qo`lga kiritilayotgan yutuqlardan faxrlana oluvchi, millat va mamlakat obro`si uchun kurashuvchi, Vatan mudofaasini ta`minlovchi shaxs sifatida namoyon bo`ladi.

I.A.Karimov “...Vatan ravnaqi avvalo uning farzandlariga, ularning ma`naviy va jismoniy kamolotiga bevosita bog`liq. Bu o`z navbatida har bir yurtdoshimizning zimmasidagi yuksak fuqarolik ma`suliyatini uyg`unlashtirib

yashashga da'vat etadi"[5] – degan so'zida yoshlarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish har bir insonning burchi ekanligini ta'kidlagan.

Fuqarolik madaniyati yuqori darajada bo'lgan fuqaro "... jamiyatga beruvchi foydalari va jamiyatdan oluvchi manfaatlari nisbatini teran anglovchi hamda o'z amaliyotida bu nisbatda muvozanat buzulmasligi qat'iy rioya etuvchi sub'ektdir"[4].

O'quvchilarda fuqarolik madaniyati hissi va e'tiqodini tarbiyalamay turib, ularda ahloqiy, xulqiy odatlarni, malakalarni hosil qilib bo'lmaydi. O'quvchilar tarbiyasida fuqarolik madaniyati tuyg'usini qaror toptirish murakkab jarayon. Bunda dastlab bolalarga milliy o'zlikni anglash tuyg'usining mohiyati va qoidalari mazmuniga oid bilimlar beriladi. Avvalo o'quvchiga milliy o'zlikni anglash odobi va madaniyati haqida tushuncha beriladi, bu xildagi xulqda, xatti-harakatlarga oid namunalar keltiriladi, so'ngra faoliyat uyushtiriladi. Ana shu asosida milliy o'zlik tushunchalari vujudga keladi va insoniylik xulqiy odatlar hosil qilinadi.

O'quvchiga milliy o'zlik tushunchalari badiiy va ilmiy adabiyotlar, matbuot yangiliklari, kino fil'm, spektakl g'oyalari, turli suhbatlar mazmunini tushuntirish, targ'ib etib borishi orqali singdiriladi. Fuqarolik tuyg'usini bolalarda maktabgacha tarbiya yoshidan boshlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun "Respublika bayrog'ida nimalar aks ettirilgan?", "Respublika gerbidagi Humo qushi nimaning ramzi?", "Men davlat madhiyasini bilamanmi?" kabi mavzularda suhbatlashishi g'oyat muhimdir.

O'quvchiga milliy o'zlikni anglash tuyg'usi sifatida o'z xulq - atvori mazmunini tahlil etish imkonini berish lozim. ya'ni, "Bugun xalq farovonligi vatan taraqqiyoti uchun nima qila oldim?", zimmamdagi burchni qanday ado etdim?" tarzidagi savollarga javob topishga o'rgatish kerak.

O'quvchilarga o'qish, a'lo baholarga o'zlashtirish, o'z tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirish bolada fuqarolik burchini ado etish imkoni ekanligini tushuntirib borish zarur. Fidoiylilik, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, qat'iyat, matonat, uyushqoqlik kabi xislatlar milliy o'zlikni anglash tuyg'usini tarbiyalar olib borish jarayonida yuzaga keladi.

O'quvchilar tarbiyasini tashkil etish uchun ma'lum shart - sharoitlar taqozo etiladi. Bular;

1) maktabdagi ta'lim - tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak;

2) milliy o'zlikni anglash tuyg'usini tarbiyalash jarayonining muvaffaqiyati o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasining saviyasiga bog'liq;

3) tarbiyaviy ishning rejali, uzluksiz, tizimli bo'lishiga erishish;

4) oila maktab va mahallalarda o'zaro hamkorlik va hamjihatlikning yuzaga kelishi milliy o'zlikni anglash tuyg'usini tarbiyalash muvaffaqiyatini ta'minlaydi;

5) o'quvchilarning milliy o'zlikni anglashi va huquqiy me'yorlar, umumiy tartibga rioya qilishga o'rgatish.

Tarbiyada milliy o'zlikni anglash tuyg'usini tashkil etishda suhbat, munozara, ma'ruza, baxslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollariga javob olish kabilar yuksak natijaga olib keladi.

Tarbiyada milliy o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish uning natijasini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bunda bolaning tarbiyalanganlik darajasi asos qilib olinadi. Ushbu maqsadga diagnostika (tashxis qo'yish), statistik, qiyosiy tahlilini o'tkazish lozim.

Ijtimoiy – milliy o'zlikni anglash tuyg'u tarbiyasining tashkil etilishi natijasida kamol topgan fuqaro o'zida quyidagi sifatlarni namoyon eta olishi lozim:

- milliy o'zlikni anglash burchini bajara olishi (o'z vatani, xalqi, ota onasi oldidagi qarzni xis eta olishi) qobiliyatiga egalik;

- milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usiga ega bo'lish;

- davlat Konstitutsiyasi, davlat hokimiyati organlari, mamlakat Prezidenti hamda davlat ramzlari (gerb, bayroq va madhiya)ga nisbatan hurmatda bo'lish;

- mamlakat taqdiri va istiqboli uchun javobgarlik, mas'ullik;

- ijtimoiy-huquqiy hamda ahloqiy me'yorlarga nisbatan hurmat va itoatda bo'lish;

- mamlakat milliy boyliklari;
- milliy davlat - tili, madaniyati va an`analariga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo`lish, ularni asrash;
- ijtimoiy faollik;
- demokratik tamoyillarga amal qilish;
- tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va ma`suliyatli munosabatda bo`lishi;
- fuqarolarni huquq va burchlarini hurmat qilish - huquqiy ong va fuqarolik madaniyatga ega bo`lish;
- to`g`riso`z, adolatli, muruvvatli, mehribon bo`lish;
- o`z faoliyati va xatti-harakatiga nisbatan mas`uliyatli bo`lish;
- baynalminallik, o`zga mamlakatlar, xalqlarga nisbatan hurmatda bo`lish va boshqalar.

Jamiyatning taraqqiyoti demokratik o`zgarishlarning darajasi va sur`atlarining milliy o`ziga xos va mos rivolanishi bilan fuqarolarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasining bir-biriga qanchalik mutanosib bo`lishiga bog`liqdir. Sharqda demokratik individualizimga tayanmay, balki hamjihatlik va jamoatchilik fikrining ustivorligi zaminida shakllangan.

Fuqarolar dunyo qarashida milliy –ma`naviy qadriyatlarga tayanish, uning talqini va jamiyatimizda iqtisodiy – siyosiy islohatlarni amalga oshirishda tutgan o`rni bugungi muhim muammolar jumlasidandir. Millat uchun erkinlik adolat tantanasining oliy ifodasidir. Erkinlik birovni o`ziga qaram qilishga, birovning mol-mulkini talon-taroj etishga, birovga hiyonat qilishga, birovni o`ldirishga yoki zarar etkazishga yo`l qo`ymaydi. Chunki erkinlik qonunga asoslanadi: qonun doirasida olib boriladigan ishlar va xatti-harakatlar axloqiy hamda huquqiy qadriyatlar jihatidan haqli hisoblanadi. Kundalik turmushda, o`zaro munosabatlarda inson erkinligi (erkin faoliyati) qonun va ahloqiy normalar bilan cheklangan bo`ladi. Erkinlikni to`g`ri tushinib, uni hayotimizga to`g`ri tatbiq etganimizdagina, bu buyuk ne`mat – adolat va erkinlikni saqlab qolishimizga ulardan bahra olishlari mumkin.

Jamiyat ma'naviy hayotida milliy qadriyatga munosabat muammolari quyidagi omillarga bog'liq deb aytish mumkin:

Birinchidan, mustaqillik ulug' ne'mat va qadriyat ekanini chuqur idrok etgan holda, umummaqsad yo'lida fuqarolar ozod shaxs va erkin fuqaro sifatida jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini chuqur anglab, faollik ko'rsatishi ularning qalb amriga aylanish lozim.

Ikkinchidan, jamiyatni erkinlashtirish va ma'naviyat demokratiya hamda fuqarolar dunyoqarashidagi milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish bilan ham uzviy bog'liq. Mamlakat, xalq, millatning bugungi va kelajagiga daxldor bo'lgan qadriyatlar haqida o'z fikrini ochiq va erkin bildirish ayrim salbiy holatlarning oldini oladi. Eng muhimi, fikrni erkin aytish muhim. Yoshlar fikriga xurmat bilan qarash, o'zgalar fikriga tayanish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tiklash orqali jamiyatda siyosat – huquqiy madaniyat yuksalib boradi.

Uchinchidan, demokratik jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni tiklashga ehtiyoj ortib, fikrlar xilma-xilligi, munozara madaniyati shakllanadi. Faqat o'z fikrini o'tkazish, o'zgalar fikrini bo'g'ib qo'yish hollariga bahram beriladi.

To'rtinchidan, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning tiklanishi tufayli fuqarolar o'z erkinligi va mustaqilligini qadrlaydigan, unga hurmat bilan qaraydigan, shu tuyg'uga ko'proq ehtiyoj sezadigan bo'lib boradi. Madaniy merosiga nisbatan befarqlik va loqaydlik kabi ayrim illatlar barham topadi.

Beshinchidan, bugungi rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan ayrim fuqarolar faoliyatida uchraydigan, qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan salbiy illatlarga barham berish imkoniyati tug'iladi.

Oltinchidan, mustaqil mamalakatda har bir fuqaroning qaysi sohada ishlashidan qat'i nazar, avvalo, ozod va erkin shaxs, inson sifatida o'zini anglamog'i zarur bo'ladi. O'zlikni anglash esa ma'naviy qadriyatlarni chuqur o'rganish, asrab-avaylab rivojlantirish orqali amalga oshadi. Zero, fuqarolarning haqiqiy ozodlik, erkinlikni qalban his va idrok etmasdan erkin hamda ozod fuqaro sifatida faoliyat ko'rsatish qiyin.

Mustaqil O'zbekistonning kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari taraqqiyoti davrida, asriy ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimizning tarixiy tajribalaridan to'g'ri foydalanib, ularning ibratli ishlaridan saboq olish mamlakatimizda fuqorolik jamiyati qurilishi vazifalarni amalga oshirishga, xalqimizning ma'nan yuksalishiga xizmat qiladi. Fuqarolar dunyoqarashida milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanish muayyan maqsad va vazifalarni o'z ichiga oladi. Ular quyidagilar:

Birinchidan, fuqarolar o'z dunyoqarashida milliy – ma'naviy qadriyatlarga tayanmasa, ularning ongi va tafakkuridan mutlaqo begona qadriyatlar joy oladi. Uning milliy – ma'naviy qadriyatlariga nisbatan bepisandlik bilan qarash shakllanadi. Yoshlar bilan ishlash jarayonida bunday holatni alohida hisobga olish kerak;

Ikkinchidan, fuqarolarning milliy-madaniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatining hozirgi holatini o'rganish, ularning amaliy faoliyatlarida ko'proq qaysi qadriyatlar ustivor bo'lib borayotganini aniqlashga yordam beradi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ularning milliy-madaniy meros va qadriyatlarga nisbatan ishonch va e'tiqodini mustaxkamlashdan iborat;

Uchinchidan, fuqarolarning milliy-ma'naviy qadriyatlariga nisbatan ishonch va e'tiqodining mustaxkam bo'lishi O'zbekiston tanlagan o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'li talablaridan kelib chiqadi hamda yoshlar oldiga aniq vazifalarni qo'yadi. SHuning uchun ham fuqarolar dunyoqarashida, ularning milliy-ma'naviy qadriyatlariga munosabatida aniq pozitsiyaning shakllangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan o'tkazilgan sosiologik so'rov natijalariga ko'ra, milliy o'zlikni angalash bo'yicha so'ralagan 46.6% yoshlar xalqning urf-odatlarini va an'alariga, 28.9% O'zbekistonning milliy mustaqilligiga, 28.4% o'z xalqining boy tarixiga, 21.7% ona tili va milliy madaniyatiga, 19.5% o'z millatining ma'naviy o'ziga xosligi, 16.6% o'tmish avlodlarining buyuk merosiga tayanish muhim ahamiyat ekanini bildirishgan [22].

1.3.1 - jadval

No	Milliy o`zlikni angalash	Foiz ko`rsatkichi
1.	Fuqarlar xalqning urf-odatlar va an`analariga	46.6%
2.	O`zbekistonning milliy mustaqilligiga	28.9%
3.	O`z xalqining boy tarixiga	28.4%
4.	Ona tili va milliy madaniyatiga	21.7%
5.	O`z millatining ma`naviy o`ziga xosligi	19.5%
6.	O`tmish avlodlarining buyuk merosiga tayanish muhim ahamiyat ekanini	16.6%

“Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o`rganish markazi tomonidan o`tkazilgan sotsiologik so`rov natijalari

Demak, O`zbekiston yoshlari xalqining tarixi va an`analarining, milliy madaniyati, avlodlar o`rtasidagi aloqa, o`zlikni anglash va o`ziga xoslikni muhim omil sifatida baholaydi.

Ilm-fanimizning ta`lim tizimidagi dolzarb masalalaridan biri o`quvchi yoshlarini kasbiy ma`naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash milliy g`oyamizni nazariy jihatdan yanada takomillashtirishdan iborat.

Ta`lim tizimida ma`naviyat-ma`rifat targ`iboti va ma`naviy- ma`rifiy tadbirlar yoshlarni kompleks kasbiy-ma`naviy tarbiyalashda katta o`rin tutadi.

O`quvchilar ongiga milliy g`oyani singdirish orqali ularning ma`naviy- ma`rifiy dunyoqarashini yuksaltirish, milliy o`zlikni anglash, ma`naviy qobiliyatini shakllantirish bugungi kunning muammosidir.

Ta`lim tizimida ma`naviyat targ`iboti va ma`naviy-ma`rifiy tadbirlarni tashkil etish quyidagi turlarda o`tkazilishi maqsadga muvofiqdir:

✚ bevosita ta`lim jarayonida o`tkaziladigan tadbirlar;

✚ darsdan tashqari vaqtlarda o`tkaziladigan tadbirlar.

Ta`lim muassasalarida ma`naviyat targ`iboti va ma`naviy-ma`rifiy tadbirlarni tashkil etish va o`tkazishda quyidagi jihatlarga rioya qilish lozim:

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda yuqori interfaol mustaqil fikr yuritish;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda yuqori interaktivlikka erishish;
- milliy g'oya mafkurani shakllantirish;
- Vatan tuyg'usini shakllantirish;
- milliy o'zlikni angalsh tuyg'usini shakllantirish;
- o'zini-o'zi idora qilish(boshqarish);
- o'zini-o'zi tarbiyalash;
- o'z shaxsini rivojlantirish;
- tadbirlarga kompleks yondashish;
- tadbirlarning milliy, tarbiyaviy, ma'naviy-axloqiy, ma'naviy-moddiy qadriyatlar ruhida bo'lishiga alohida e'tibor qaratish;
- tadbirlarning mazmun-mohiyati va xususiyatlarini tahlil qilish;
- tadbirlar milliy manaviyatimiz asoschilari buyuk ajdodlarimizning, allomalarimizning, xalqimiz qaxramonlarining ijodi hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan va o'tkazilishi va x.k.

Ma'naviyat targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda yuqori samaradorlikka erishishi uchun, bu tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda ular ongiga ona yurtga muhabbat, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularin chuqur singdirish borasidagi faoliyatga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Yosh avlodni tarbiyalovchilar zamon talabiga mos qilib kompleks milliy o'zlikni anglash tuyg'usini tarbiyalash uchun esa pedagog – o'qituvchilarning o'zi zamon talablariga javob bera oladigan darajada bo'lishlari shart. Shu sababli ham bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qiluvchi bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlash orqali ularning talabchanlik, yaratuvchanlik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, targ'ibotchilik, ijodkorlik, kasbiy harakatchanlik qobiliyatlarini yuksaltirish muammosini hal qilish mumkin.

4. O`quvchilar fuqarolik madaniyatini yuksaltirishda ta`lim va ma`naviy-ma`rifiy tadbirlarning roli

Umumiy o`rta ta`lim yuqori sinf o`quvchilari faoliyatini tahlil etish ularda o`qitilayotgan bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlar, jumladan, “O`zbekiston tarixi”, “Milliy istiqlol g`oyasi va ma`naviyat asoslari”, “O`zbekiston davlati va huquqi asoslari”, “Konstitutsiyaviy huquq”, “Chaqiruvga qadar boshlang`ich tayyorgarlik” kabi fanlar kasb-xunar kollejlari o`quvchilaridan fuqarolik madaniyati elementlarini tarbiyalashda katta imkoniyatlarga egaligini ko`rsatadi. Qolaversa, o`quv mashg`ulotlari davrida o`quvchilarda hosil bo`lgan fuqarolik, fuqarolik madaniyati va uning elementlari to`g`risidagi nazariy bilimlar asosida o`quvchilarda ularni jamiyat va xalq manfaatlarini yo`lida mehnat qilish, milliy istiqlolni mustahkamlashga undovchi ma`naviy-axloqiy sifatlarni amaliy jihatdan tarbiyalashga imkon beruvchi ma`naviy-ma`rifiy tadbirlarni izchil, tizimli tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

O`quv fanlarini o`qitish jarayonida ma`naviy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik va o`z burchini xis etish, jamiyat qonun – qoidalariga ma`suliyat bilan yondashish, ular tomonidan “madaniyat”, “madaniylik”, “fuqarolik madaniyati” kabi tushunchalarning mohiyati va mazmunini anglashiga erishish lozim.

Kasb-xunar kollejlari o`qitilayotgan fanlar milliy an`analar bilan bog`langan holda hozirgi zamon didaktikasi talablariga ko`ra o`qitilishi muhimdir.

Buning uchun dastlab o`quv jarayonini insonparvarlashtirish, o`quvchilarda erkin, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish imkoniyatini yaratish, o`quv mavzularining xarakteriga ko`ra ilg`or, noan`anaviy metodlarni tanlay bilish, shuningdek, o`quvchilar bilimini mustahkamlovchi tashxis va ular xulqidagi kamchiliklarni korrekciyalashga e`tibor berish lozim.

O`quv dargohi o`quvchiga maxsus bilim beradi, uni ma`lum bir kasbga, mutaxassislikka tayyorlaydi. Ta`lim davri insonning ayni kuch-quvvatga, yashash va yaratish ishtiyoqi bilan to`lib-toshgan paytiga to`g`ri keladi. Xuddi shu pallada

milliy madaniyatimiz tamoyillariga muvofiq yashashga undovchi huquqiy madaniyat targ'ib etilsa, bu borada amalga oshirilgan ishlar yaxshi samara beradi. Chunki inson yuksak malakali mutaxassis bo'lib etishsa-yu, uning ma'naviy va madaniy bilimlari sayoz bo'lsa, u o'z atrofdagilariga yaxshi muomalada bo'la olmasligi, olgan bilim tajribasining faqat o'z manfaati yo'lida safarbar etishi mumkin. Bunday fuqaro esa jamiyatga foyda emas, aksincha zarar keltirishi turgan gap.

O'quvchilarga dars mashg'ulotlarida asosiy mutaxassislikning sir-sinoatlarini o'rgatish bilan birga, milliy davlatchiligimiz tarixi, ajdodlarimizning ilmu fan va madaniyat sohasida erishgan ulkan yutuqlari, xalqimiz ozodligi, yurtimizni turli bosqichlaridan himoya qilish yo'lida u ko'rsatgan olamshumul qahramonliklar to'g'risida ko'proq misollar keltirishga, ular qalbida o'z Vatani va xalqiga nisbatan mehru muhabbat va sadoqat tuyg'ularini uyg'otishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

O'quvchilarni yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalashning yana bir samaradoligi ajdodlarimiz manaviyatidan foydalanishdir.

Ta'lim tarbiya jarayonida Alisher Navoiy faoliyatini o'rganish har doim ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Shuning uchun ham bugungi kunda o'quvchilarga Alisher Navoiy faoliyatini o'rgatishda o'ziga xos tizimni ishlab chiqish davr talabiga aylanib qolgan. Chunki buguni kun o'quvchisi zamon bilan hamnafas bo'lib taraqqiyot tomon qadam qo'ymoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy saviyasini va bu sohadagi bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O'quvchilarning ma'naviy saviyasini aniqlash ham o'ziga xos bo'lgan muammo echimini topishni talab etadi. Biz o'quvchilar ma'naviy saviyasini aniqlashni ham maqsad qilib olganmiz va uning asosini o'quvchilarning komp'yuter bilan samarali muloqoti tashkil etadi. Bunday maqsad milliy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirib, ularning tafakkurini kengaytirishdan iboratdir. Bu masala yuzasidan bir qancha vaqt maboynida quyidagicha izlanishlar olib borildi:

1. O'quvchilarning ma'naviy bilim darajasini aniqlash;

2. O'quvchilarning milliy ma'naviy qadriyatlar to'g'risidagi bilimlari doirasini aniqlash;
3. O'quvchilar tomonidan milliy ma'naviy qadriyatlar bo'yicha nazariy bilimlarning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash;
4. Bu sohadagi mavjud bilimlarini yoshlarga etkazib berish san'atini, ya'ni bo'lajak mutaxassislarning milliy ma'naviy qadriyatlar targ'ibot qilishga tayyorgarlik darajasini aniqlash va hakoza.

Barkamol avlod tarbiyasi har qanday jamiyatda ham ongli tabaqaga tegishli insonlarning ezgu-orzusi bo'lib kelgan. Ayniqsa, bizning o'tmishimizga tegishli bo'lgan boy milliy-ma'naviy merosimiz namoyondalari Al-Xorazmiy (783-850), Imom al-Buxoriy (810-870), Abu Rayhon Beruniy (973 – 1048), Abu Ali Ibn Sino (980 – 1037), Yusuf Xos Hojib (XI – asr), Najmiddin Kubro (1145-46 - 1221), Amir Temur (1336 –1405)[14,16] va shu kabi ulug' allomalar yashab o'tgan davrda, dunyoviy va diniy bilimlar bir - birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko'tarildi. Shubhasiz, komil inson tarbiyasi ham ularning diqqat e'tibori markazida turgan muammolardan biri bo'lgan. Bunga isbot sifatida birgina Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» nomli asaridagi g'oyaning o'zi etarli yoki Sohibqiron Amir Temur tomonidan butun dunyoga ma'lum bo'lgan o'sha davrdagi ilm-fan rivoji uchun yaratilgan sharoit, barkamol avlod tarbiyasiga e'tiborning yorqin dalilidir. Demak, mamlakatimiz, xalqlar, milliy qadriyatlarni ulug'lovchi urf-odatlardagi, mafkuradagi ma'rifat tushunchasi, ilm va bilimga intilish xislati, xullas, komil inson bo'lishga harakat qilish jarayoni bir necha ming yillik tarixga ega. Respublika o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, ilgari surilgan sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash to'g'risidagi fikrlar ham ajdodolarimiz tomonidan ming yillar davomida ulug'lanib kelingan buyuk g'oyalarning amaldagi ko'rinishidir. «Mustaqillik - o'zaro hurmat, bir - birini tan olish, bir - birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari o'zaro munosabatida ham, jahon davlatlari o'rtasidagi aloqalarda ham ana shu umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, ana shu umumiy mezonlar asosida yashashdir» [9,5]. Mustaqillik tufayli esa o'zligimizni anglash, ya'ni boy o'tmishimizni o'rganishga keng yo'l ochildi.

Yuqorida nomlari tilga olingan ulug' bobolarimizning yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti yo'nalishidagi, xalq farovonligi haqidagi, shuningdek Komil inson

to'g'risidagi ta'limotlari, ularning yuksak ma'naviyatli kishilar ekanligiga shubha qolmaydi. Demak, biz mustaqilligimiz va barkamol avlod tarbiyasiga ham to'liq javobgarmiz va bunga to'liq ma'naviy asosimiz bor.

Buyuk allomalarimizning asarlari, hayoti, faoliyatini o'quvchilarga o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar didaktik vosita sifatida xizmat qiladi[18]. Zamon talabidan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonlariga axborot va telekommunikatsiya vositalarini olib kirish orqali o'quvchilarga keng fuqarolik madaniyatni shakllantirishni axborot ko'lamini bilan tanishtirish mumkin. Bunda biz Alisher Navoiy faoliyatida fuqarolik g'oyalarini o'rganishda kompyuter texnologiyasidan unimli foydalanamiz[12,13]. Dastur bilan muloqot shunday olib boriladiki, o'quvchi savollarga to'liq javob topmaguncha, kompyuter uni izlanishga jalb qilaveradi. Undagi ogohlantirish, da'vat va rahmatnomalarni o'quvchilar ruhiyatiga tez ta'sir qiladigan qilib tayyorladik. Bu ta'lim texnologiyasining yana bir afzalligi shundaki, ulug' mutaffakirlar to'g'risidagi boy ma'lumotlarning ko'pligini va ularni har qanday o'qituvchi ham hamma vaqt yodda saqlay olavermasligini e'tiborga olib, biz Alisher Navoiy faoliyatida fuqarolik g'oyalarini o'quvchilar ongiga singdirishda axborot texnologiyasidan quyidagicha foydalanishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Bunda:

1. Alisher Navoiyning hayoti va ijodida fuqarolik na'munalari;
2. Asarlarining fuqarolik madaniyatiga yo'rg'alanganlik tarbiyaviy ahamiyati;
3. Alisher Navoiyning bunyodkor-fuqarolik g'oyalari;
4. Ta'lim-tarbiya jarayonida fuqarolik madaniyatini ibrat qilib ko'rsatish tizimi;
5. Alisher Navoiy faoliyatida fuqarolik g'oyalarini targ'ib qilish.

Biz tomondan taklif qilayotgan ta'lim berishning bu usuli, yangi pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi talab qilayotgan bir davrda o'rgatilishi maqsadga muvofiqdir. Ta'limda bunday usulni nafaqat pedagogika fanlari va kurslarida, balki boshqa fanlarda ham ishonch bilan qo'llash imkoniyatini yaratildi.

Alisher Navoiy faoliyatini o'rganishda biz asosan ulug' allomaning jamiyatga bo'lgan munosabatlariga e'tiborni ko'proq qaratdik.

Biz Alisher Navoiyning jamiyatga bo'lgan munosabatlarida:

- jamiyat ravnaqi;
- farovon turmush tarzi;
- sog'lom turmush tarzi;
- jamiyatda adolat;
- yosh avlod tarbiyasi;
- qizlar tarbiyasi;
- o'g'ilbolalar tarbiyasi;
- jamiyatda ma'naviy tarbiya;
- jamiyatda mehnat tarbiyasi;
- jamiyatda jismoniy tarbiya;
- jamiyatda nafosat tarbiyasi;
- jamiyatni ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan rivojlantirish kabi fikrlari

bugungi kunda ham o'z dolzarbligini ta'kidlaydi.

O'tmishdan ma'lumki, bizning ajdodlarimiz aql-zakovatli inson bo'lganlar. Ularning avlodlari bo'lgan zamondoshlarimiz esa bobolarning istiqbolli ishlarini davom ettirmoqdalar va Respublikamiz hukumati tomonidan ta'lim-tarbiya uchun har qanday zarur sharoitlar yaratib berilmoqda. Bizlarga berilgan keng imkoniyatlardan to'g'ri foydalanib, yoshlarni barkamol avlod darajasiga ko'tarish, kelajagimizning ham buyuk bo'lishini ta'minlash zarur.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, milliy-ma'naviy qadriyatlarni, fuqarolik madaniyatini shakllantirishda axborot texnologiyalarni qo'llash istiqbolli natija beradi.

Ma'lumki, o'quvchilarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishda ajdodlarimizning boy meroslari muhim o'ringa egadir. Fuqaroning muntazam rivojlanishini nazarda tutuvchi ta'lim-tarbiyaning asosiy tamoyillarini hisobga oluvchi xalq pedagogikasi asrlar osha rivojlandi va takomillashib keldi. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma'rifatga, ma'naviyatga mansub bo'lgan yurtlarning donishmandlari - eng mo'tabar ziyolilari bo'lib, ularning hayot yo'li bu borada ibrat-namuna rolini o'ynaydi. Barkamol avlodni tarbiyalashda tariximizdan juda ko'p dalillar keltirish mumkin. Jumladan, Zardushtiylarning «Avesto» muqaddas kitobi orqali qoldirgan ta'limoti, Ibn Sino tibbiyoti, Abu Rayhon Beruniy va Al-

Xorazmiylarning qomusiy ta'limotlari, Ulug'bekning koinot va ommaviy ta'limni tashkil etishi, Al-Farg'oniy va Mirzo Ulug'beklar nomiga osmon jismlarining nomlari qo'yilishi, Alisher Navoiyning adolatparvarlik haqidagi ta'limoti yoki Imom Buxoriy, at-Termiziy, Ahmad YAssaviy, Naqshbandiy va boshqa shu kabilarning hadis ilmlari yoki Amir Temur davlatchiligi, Boburning ma'rifati va ta'limdagi islohotlari, ya'ni «Xatti Boburiy» va «Ma'mun Akademiyasi»dagi «Donishmandlik uyi» ta'limotlari hamma-hammasida kelajak avlodni, fuqarolik madaniyatini yuksaltirish, savodli, ma'rifatli, ma'naviy va jismoniy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash bosh masala bo'lgan.

O'quvchilarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishda milliy, ma'naviy qadriyatlarni ifodalovchi tarixiy boy merosimiz bitmas-tuganmasdir. Mazkur sohadagi ilmiy izlanishlar natijalari bizning o'tmishimiz va unga tegishli manbalarning naqadar buyukligini va bu boradagi tarixiy ma'lumotlar nihoyatda ko'p ekanligini tasdiqlaydi. YOshlarimizdagi milliy g'ururni yanada rivojlantirishda ular bebaho va katta hajmdagi ma'lumotlar xazinasidan iborat.

O'quvchilarda fuqarolik madaniyatini shakllantirish va yuqoridagi g'oyalarni singdirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali o'quvchilar dunyoqarashni boyishiga xizmat qiladi.

Bunda:

- kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, el- yurtga muhabbat;
- ota - onaning qadrini bilish farzandlik burchi ekanligini yurakdan his etish;
- oilaga va farzandlarga bo'lgan burchni to'la anglab, g'amxo'rlik qilish;
- o'zgalar quvonchi-yu, qayg'usiga sherik bo'la olish tuyg'usini shakllantirish;
- farzandlarni bilimli qilish;
- ustozu ziyolilarga, nomdor kishilarga e'tibor berish;
- davlatning oqilona siyosatini qo'llab, unga ko'maklashish;
- milliy qadriyatlarga yanada e'tibor berish;
- nogiron kishilarga muruvvat ko'rsatish;
- ta'lim maskanlarini har tomonlama qo'llash;
- qo'shni bilan yaxshi munosabatda bo'lish;
- ona Vatanni himoya qilish;

- tabiatni yanada go`zal, obod qilish tuyg`usini yanada rivojlantirish kabi tuyg`ular yoshlar qalbida aks etadi.

Umuman olganda o`quvchilarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishda mutafakkirlar faoliyatini yoshlar ongiga singdirish ulug` allomalarga hurmat va ehtirom tuyg`ularini yuzaga keltiradi. Bu esa o`z navbatida ulug` allomalar tomonidan yaratilgan bebaho asarlarni o`rganishga, ularda ko`tarilgan g`oyalarni kundalik hayotda qo`llashga zamin yaratadi.

5. O`quvchilar fuqarolik madaniyatini shakllantirishda milliy ma`naviyatning ahloqiy xususiyatlari

O`quvchilarda fuqarolikka xos madaniy xulq va hatti-harakatlarda ayrim kachiliklar mavjudligi ko`zga tashlanadi. Bular: o`quvchilarda shaxsiy axloqiy fazilat, burch va ma`suliyat hissini etarli darajada shakllanmaganligi, qonun-qoidalarga itoat etmaslik, intizomsizlik, manmanlik, o`zboshimchalik va boshqalar.

Yuqoridagi kamchiliklarga ega bo`lgan o`quvchi “madaniyatsiz”, “odobsiz”, “axloqsiz” deb atalgan. Bunday o`quvchilarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishda ta`lim-tarbiyaviy ishlar muhim rol o`ynaydi.

Odatda birgina dars yoki tarbiyaviy tadbir orqali insonga xos madaniylikni tarbiyalab bo`lmaydi. Buning uchun ta`lim-tarbiyaviy ishlariga tizimli va integrativ yondoshuv talab qilinadi. Bunda ta`lim-tarbiya quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilmog`i lozim. Bular:

- tarbiyaviy tadbirlarning insonparvarlashuvi;
- g`oya va tushunchalarning bayoniga uzviy, tizimli yondashuv;
- o`quvchilar xulqidagi ayrim madaniyatsizlikning sabablarini aniqlash;
- fuqarolik madaniyati haqida tanlangan materiallar asosida dastlabki farazni olg`a surish.

Bunday vazifalarni amalga oshirishning mazmuni quyidagicha bo`lishi mumkin.

Ta`lim-tarbiya mazmunini insonparvarlashtirish. Bunda O`zbekiston kelajagi buyuk demokratik, huquqiy davlat ekanligi, unda insonparvarlik

qoidalarining ustuvorligi, fuqarolarning millati, dini, ijtimoiy ahvoli va e'tiqodlaridan qat'iy nazar ularning huquq va erkinliklari ta'minlangan bo'lishi hisobga olinadi. Insonparvarlik asosan shaxsning o'z-o'zini qay darajada namoyon eta olishi, burch va mas'uliyatini anglashi va madaniyatini tarkib topishida ko'rinadi.

O'quvchilar fuqarolik madaniyatini shakllantirishda milliy ma'naviyatning ahloqiy xususiyatlarini shakllantirishning asoslaridan yana biri jasorat tarbiyasidir. Inson dunyoga to'liq shakllangan fe'l-atvor, axloqiy xususiyatlar dasturi bilan tug'ilmasligi, unga xos fazilatlar, axloqiy me'yorlar ijtimoiy hayot va oilaviy tarbiya mahsuli ekani barchaga ma'lum.

Biz "inson huquqlari", "ma'naviyat", "islohot", "Vatan", "tadbirkorlik" kabi iboralar bugungi davrni yangicha tushuntirish keng qo'llanayapti. Ammo nima uchun jasorat, jur'at kabi iboralar unchalik quloqqa chalinmaydi? Xalqimiz orasida jasoratli insonlar kammi yoxud bu iboralar – "fidokorlik", "vatanparvarlik" tushunchalari bilan chalkashtirilmoqdami?

Unda O'zbekiston jasorat medalining joriy etilishining boisi nimada? Odatda jasorat deganda ko'pincha ko'z o'ngimizda qandaydir favqulotda vaziyatlar: suv toshqini, zilzila, yong'in yuz bergan vaziyatlarda qahromonlik namunasini ko'rsatgan insonlar qiyofasi namoyon bo'ladi. Vatanda tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik hukm surmoqda. Bunday vaziyatda jasoratga o'rin bo'lishi mumkinmi? Albatta. Zero yurtimizni taraqqiy ettirish, yanada yuksalishga xizmat etadigan bunyodkor g'oyalarni ilgari surish, mamlakat rivojiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etish vazifasini ado etmoq har birimizdan jon fidolik va jasorat talab etadi [26].

Jasorat azaldan jasurlik, bahodirlik, qahramonlik, shijoat kabi so'z-sifatlar bilan qiyoslanishi bejiz emas. Barcha zamonlarda xalqlar markaziy ko'cha, maydon va hiyobonlarini millatning jasoratli farzandlari nomi bilan atab kelgan. Ular orasida jangohlarda mardlik va matonat namunalarini ko'rsatgan sarkardalargina emas, ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot kabi sohalarda jasoratli mehnat qilganlar. Demak jasorat kasb tanlamaydi. U ijtimoiy – ma'naviy muhit,

maqsadli va izchil tarbiya mahsulidir. Shunday ekan, oila va o'quv maskanlaridagi muhitni yanada takomillashtirish orqali farzandlarimizni jasur va qo'rqmas qilib tarbiyalash mumkin.

Avvalo, o'g'il-qizlardagi qo'rquv, ikkilanish va jur'atsizlikni engishga o'rgatish lozim. Chunki, bolani suvga tushirmay suzishga o'rgatib bo'lmaydi. Bolalarni dadillik va jasorat talab etadigan vaziyatlarda sinamasdan ulardagi qo'rquv va jur'atsizlikni engish mushkul.

Agar biz yoshlarimizni jasur, mard, qo'rqmas etib tarbiya qilmoqchi bo'lsak, bu ishga boshqacha yondashuv kerak bo'ladi. Chunki tarbiya tarixining, demak jasorat tarbiyasining romantik bosqichi orta qoldi. Taraqqiy etgan davlatlar allaqachon uning texnologik bosqichiga o'tib olgan.

Farzandlarimizni oqil va dono, faol va uddaburon, mard va jasur etib tarbiyalash, avvalo, ota-onaga bog'liq. Biz ularni eng zamonaviy ilg'or bilimlar bilan qurollantirishga harakat qilayapmiz. Endi tarbiyaning yangi tamoyili – shaxs, davlat, millat manfaatlariga xizmat qiladigan eng muhim fazilatlarni shakllantirish texnologiyasi yaratilmog'i kerak. Chunki bilim – masalliq bo'lsa, fazilat – olovdir. Olovsiz ovqat pishmaganidek, yoniq qalb, bukilmas iroda, tetik ruh, cheksiz jasorat va sog'lom aql bo'lmasa, zamonaviy bilim va texnologiyalarni hayotga tadbqiq etish ham, yangi kashfiyotlar yaratish ham amrimahol.

Jaloliddin Manguberdi, Shiroq, Sohibqiron Amir Temur, Spitamenlar ko'p bo'lganida edi, biz hech qachon mustamlaka, mute bo'lmas edik. Demak, millatimiz tarixining nafaqat shonli, balki qayg'uli sahifalaridan saboq chiqarish lozim. Zero azaldan jasurlar ko'p millatlar – g'olib, jasurlari kam millatlar – mag'lub bo'lgan. Ilgari g'arbda, qo'l kuchida, hozir – aql, texnologiyalarda. Shunday ekan, biz farzandlarimizni er yuzining eng jasur yoshlari etib tarbiyalashimiz kerakmi?! Agar shu ishga hafsalamiz, irodamiz etsagina, biz eng peshqadam millatlar qatoridan o'rin olishimiz mumkin.

Jasoratning otasi – aql, onasi – yurak. Jasorat avvalo insonning fikrlarida sodir bo'ladi, so'ngra til va xatti – harakat orqali amalga ko'chadi. Shuning uchun o'zbek milliy pedagogikasi darg'alari aql tarbiyasini muallimlar vijdoniga

yuklangan muqaddas vazifa, deb ta'kidlab kelgan. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy fikr tarbiyasi orqali bunday degan edi:

*Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar, olmasdan bo'lur o'tkir
Fikrning o'ynasi olursa zang,
Ruhi ravshan zamir o'lur benur*[21].

Demak, diniy ekstremist-u terroristlarga qarshi Surxondaryoda, Toshkentda Vatani, xalqi va millati uchun jonini fido qilgan oddiy o'zbek yigitlarining fikrati jasoratga tayyor edi. Vaziyat taqozo qilgan – fikrdagi jasorat amalda namoyon bo'ldi va yurimizga tajavuz qilgan dushman yakson etilgan.

Jasorat darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Biz ko'pincha Vatan, xalq millat manfaati yo'lida jang maydonlarida mardlik va jasorat namunasini namoyon qilgan insonlarni e'tirof etamiz, ulug'laymiz. Vaholanki, tinchlik sharoitida ham jasoratli mehnati bilan yurtning obod bo'lishi, uning har jihatdan taraqqiy etishiga bor kuch-qudrati va salohiyatini safarbar etayotgan g'ayratli insonlar oz emas. Avloniy bobomiz ta'kidlaganidek, "G'ayrat vujudimizga quvvati ma'sud va baxtiyor bo'lishimizga sababdur. Shuning uchun har birimiz sa'y qilub, o'z kuchimiz ila maishatimizga kerak bo'lgan narsalarni topub, boshqalarga muhtoj bo'lmay, rohat-rohat yashamoq lozimdur. Yalqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lib, xorlikda qolur"[14].

Bugun dunyo hamjamiyatida etakchi o'rin egallab kelayotgan davlatlar mustaqillik va ozodlik, yuksak taraqqiyot va farovonlikka necha-necha avlodlar jasorati evaziga erishgan.

Baland qoyadagi xarsang toshni yumalatib yuboring, u uzog'i 2-3 daqiqada erga qulab tushadi. Endi huddi shu toshni tepaga chiqarib ko'ring-chi! Qancha vaqt, qancha kuch ketadi? Ulkan harsangni bir kishining o'zi ham pastga yumalatib yuborishga qurbi etadi. Ammo uni yuqoriga ko'tarib joyiga qo'yish uchun minglab odam, ya'ni, ming karra ko'proq vaqt va kuch kerak.

Biz bugun bir vaqtlar butun dunyoga ibrat bo'lgan o'zbek davlatchiligi shavkati-yu shonini o'z o'rniga – yuksak darajaga ko'tarishga intilyapmiz.

Binobarin, bu jarayon oson kechayotgani yo`q. Chunki cho`qqidan 2-3 daqiqada yumalab tushgan toshni yana shuncha vaqt sarflab, joyiga chiqarib qo`yish xom xayollikdan boshqa narsa emas. Bu ishda qanchalik ko`p odam elkadosh bo`lsa, u shunchalik tezlashadi.

O`zbekiston milliy manfaatini himoya qilish, yurtimizda huquqiy demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyati barpo etish, xalqimizning asriy orzu-armonlarini ro`yobga chiqarish, mamlakatimizni dunyodagi eng rivojlangan davlatlar qatoridan o`rin olishga erishish bugun barchamizdan bor kuch va salohiyatimizni ana shu buyuk maqsad sari safarbar etishni, ta`bir joiz bo`lsa, jasorat, yaratuvchanlik va bunyodkorlikni taqozo etmoqda.

O`quvchilarada milliy ma`naviyatning ahloqiy ko`rinishlarini shakllantirishda Respublikada olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning huquqiy jihatlarini o`rganishlari lozim. Ijtimoiy siyosatning huquqiy jihatlarini asosi bo`lib quyidagi yo`nalishlarga doir hujjatlar xizmat qilmoqda:

1. Xayriya-O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 4 martdagi “Sog`lom avlod uchun xalqaro nohukumat xayriya fondining faoliyatini ta`minlash choralari to`g`risida”gi farmoni. Unda fondning asosiy vazifalari belgilangan:

- mablag`larni “Sog`lom avlod” davlat dasturiga qaratish;
- oila va jamiyatda sog`lom hayot tarzini targ`ib qilish;
- xorij va milliy homiylarning xayriya yordami vosita va mablag`larini jalb qilish;
- ko`p farzandli oilalar, nogiron bolalar, bolalar uylari tarbiyalanuvchilariga insonparvarlik yordami ko`rsatish.

2. Mehr-muruvvatga oid O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 27 yanvardagi “Mehr-muruvvat to`g`risida”gi farmoyishi. Uning maqsadi jamiyatda do`stlik, bag`rikenglik, xalqlararo totuvlik fuqarolar, ayniqsa yoshlarning yaxshi axloqiy hislatlarini rivojlantirishdir.

3. Sog`lom avlod tarbiyasiga oid O`zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog`ligini saqlash to`g`risida”gi qonuni haqida aholining malakali

tibbiy yordam va ijtimoiy himoya olishdagi konstitutsiyaviy huquqlarni amalga oshirishi, sog`liqni saqlash tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga moslashtirish maqsadida quyidagi farmon va farmoyishlar qabul qilindi.

- O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 noyabrdagi “O`zbekiston Respublikasida sog`liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to`g`risida”gi farmoni,

- Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 3 dekabrda “O`sib kelayotgan avlodni sog`lomashtirish muammolarini kompleks hal qilish to`g`risida”gi farmoyishi,

- 2000 yil 15 fevralda “Sog`lom avlod davlat dasturi to`g`risida”gi,

- 2002 yil 31 oktyabrda “O`zbekiston bolalar sportini rivojlantirish fondi faoliyatini tashkil qilish to`g`risida”gi,

- 2002 yil 25 yanvarda “Ayollar va o`sib kelayotgan avlodning sog`ligini mustahkamlash to`g`risida”gi farmoni [13].

4. Ayollarning ijtimoiy himoyasiga oid O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining

- “Ayollarga qo`shimcha imtiyozlar to`g`risida”gi 1989 yil 14 aprelda qonuni,

- O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1989 yil 17 marta “Ayollarning maxsus himoyasini kuchaytirish to`g`risida”gi farmoni,

- Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 17 marta “Zararli va sharoiti og`ir ishlarda band ayollarning daromadlariga soliq solinayotganidagi imtiyozlar to`g`risida”gi farmoni.

5. Oilani qo`llab-quvvatlashga oid O`zbekiston Respublikasi prezidentining 1994 yil 16 iyunda “Ko`p bolali oilalarga ijtimoiy yordam tizimini mukammallashtirish to`g`risida”gi farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1986 yil 10 dekabrda “Ko`p bolali oilalarga yordam ko`rsatish to`g`risida”gi farmoyishi. “Voyaga etmagan bolali oilalarga nafaqa to`lash to`g`risida”gi Nizomida bu nafaqalarni olish huquqiga quyidagilar ega:

- nogiron bolali oilalar;

-ota-onasi yo`q bo`lgan va bolalarning tarbiyasi bilan qarindoshlari shug`ullanuvchi oilalar;

- ota-onadan biri yoki ikkalasi ham nogiron bo`lgan oilalar;

- ota-onadan biri yoki ikkalasi ham ishsiz bo`lsa.

6. Nogironlarga yordam berishga oid 1991 yil 18 noyabrdagi “O`zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyasi to`g`risida”, Vazirlar Mahkamasining “Yoshligidan nogiron bo`lganlarga, qariyalarga va mehnat qilishga layoqatsiz shaxslarga nafaqa to`lash to`g`risida”gi 1994 yil 24 iyundagi № 319 farmoyishi. Ularda nazarda tutilgan choralar nogironlar uchun individual rivojlanishlari, ularning ta`limlari va ishlab chiqarishda qatnashishlari, sog`liqni saqlash dasturini amalga oshirishga qaratilgan[7].

7. Aholining kam ta`minlangan qatlamlarini himoyalashga oid O`zbekiston Respublikasining aholining kam ta`minlangan oilalarini himoyasi to`g`risidagi farmon, farmoyishlari. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini ishga joylashtirishda ish o`rinlarining minimal soni o`rnatiladi.

Yuqorida keltirilgan hujjatlardan ko`rinib turibdiki, ijtimoiy muammolarga alohida e`tibor 1996 yildan qaratilgan. Bir yil avval 1995 yil O`zbekistonda shaxsni shakllantirishning ijtimoiy pedagogik kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Uning tuzilishi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta`lim tizimini to`g`ri isloh qilish bilan izohlanadi.

Kontseptsianing asosiy qoidalari:

1) madaniy-axloqiy tarbiyaning ta`limdan ustuvorligi;

2) insonda ijtimoiy faollik, o`z-o`zini boshqarish ko`nikmalari, muomala va axloq madaniyati, yuqori intizomga ega demokratik jamiyat fuqarosini tarbiyalash;

3) ijtimoiy faol shaxsni jamiyat ishlab chiqarishning asosiy sharti sifatida shakllantirish har bir fuqaro hayotining ijtimoiy-siyosiy, ma`naviy sohalarida ishtirok etishi;

4) shaxsni ijtimoiylashtirish vositalari sifatida demokratiyalashtirish, insonparvarlik tamoyillarini amalga oshirish;[8,19]

Ta'limni demokratiyalashtirish-faollik va tashabbusni, hamkorlik, birlik vositalarini rivojlantirishni nazarda tutsa insoniylashtirish yosh avlodni milliy, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar orqali umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarga, inson huquqlarini ta'minlashga ko'nikishlari demakdir.

6. Yuksak fuqarolik ma'naviyatga ega o'quvchilarni tarbiyalashning samaradorligi

Umumiy o'rta ta'lim yuqori sinf o'quvchilarida fuqarolik madaniyatni shakllantirish muammosining muvaffaqiyati tadqiq etilishi mavjud adabiyotlarni nazariy tahlil etilishi, ta'lim muassasalari amaliyotining o'rganilishi hamda o'quvchilar faoliyatining mavjud holatiga baho berilishiga ham bog'liq. Mavjud manbalarni nazariy jihatdan o'rganish, yangi turdagi ta'lim muassasalari faoliyatini bevosita tahlil qilish, ijtimoiy-gumanitar fanlar, shuningdek ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul shaxslar bilan tashkil etilgan muloqotlar natijasi mustaqillik yillarida O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim yuqori sinf o'quvchilarida fuqarolik madaniyatni shakllantirishga oid yaxlit manba mavjud emasligini ko'rsatadi. Garchi, o'quvchilarda fuqarolik sifatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan harakat bir qator ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar – tarix, adabiyot, huquq, geografiya, “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari”, “Iqtisodiy bilim asoslari”, “Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik” kabi fanlar, shuningdek, o'quvchilarga ta'lim muassasasining faoliyati yo'nalishiga muvofiq kasbiy bilimlarni berishga yo'naltirilgan ayrim ixtisoslik fanlari doirasida muayyan yo'lga qo'yilsa-da, ularning fuqaro va unga xos bo'lgan sifatlar to'g'risidagi nazariy bilimlari tizimli emas. Buning asosiy sababi nomlari qayd etilgan o'quv va mutaxassislik fanlarini o'qitishga ajratilgan vaqt hajmi doirasida o'quvchilarga fuqarolik va fuqaro sifatlariga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatining etarlicha ochib berish imkoniyatining mavjud emasligidir. Shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rtasidagi muvofiqlikning mavjud emasligi ham bunga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, yuksak ma'naviyatli fuqaro deganda ham aqliy, ham axloqiy, ham jismoniy kamol topgan, moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligini o'zida mujassam etgan, mustaxkam milliy g'urur va iftixor tuyg'ulariga ega ma'naviy jasorat egasi tushuniladi. Bunday insonning ulg'ayishi va kuch-qudrati manbaini ma'naviyat tashkil etadi.

Prezident Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch" asarida ma'naviyatga doir fikrlarni inkor etmagan holda "Ma'naviyat" tushunchasi mazmuni faqat "ma'ni", "Ma'no" degan so'zlar doirasida chegaralanib qolmasligini alohida ta'kidlab o'tadi: "Nega deganda, insonni inson qiladigan, uning ongi va ruxiyati bilan chambarchas bog'langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq xayotida hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan alohida o'rin tutadi.

Shu fikrni mantiqiy davom ettirib, ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ikki dunyosi, irodasining baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, triximiz va bugungi xayotimizda har tomonlama o'z tasdig'ini topib borayotgan haqiqatni yaqol ifoda etgan bo'lamiz." [3]

"Ma'naviyat" tushunchasi jamiyat xayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va ahloqiy qarashlarni o'zida ifoda etadi. Shuning uchun xam bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma'nodagi "ma'naviyat" tushunchasi orqali ifoda etish mumkin.

Ma'naviyat sohasida ijobiy echimi ta'minlash zarur bo'lgan asosiy vazifasini ko'rsatar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: "Bu soxadagi asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy xayotimizdagi o'rnini va xurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir. Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro

ma'naviyatini shakllantirishdir. ya'ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat"[3].

Yoshlar tarbiyasi, yuksak ma'naviyatli o'quvchilarni tarbiyalash – bu murakkab jarayon. Ayniqsa, aholisining uchdan ikki qismi yoshlardan iborat bo'lgan O'zbekiston uchun yosh avlodni ilimli, madaniyatli qilib tayyorlash yanada muhimdir. Yoshlar tarbiyasiga xalqning, millatning, mamlakatning kelajagi, istiqboli qaraydi. Chunki bugungi o'smir, bugungi yosh ertaga mamlakatni idora etuvchi rahbar, mamlakat taqdirini hal qiluvchi deputat, olim, yozuvchi, jamoat arbobi, qisqasi, jamiyat hayotining barcha jabhalarida faol ish yuritadigan kishi bo'lib etishadi. Uning bexato ishlashi, jamiyatga ko'proq nafi tegadigan inson bo'lib shakllanishi bugungi oladigan ta'lim va tarbiyasi bilan belgilanadi.

Yoshlarimizni iymoni but, e'tiqodi mustahkam qilib tarbiyalamoqchi bo'lsak, albatta ularni muhtaram Prezidentimiz asos solgan milliy mafkuramiz tevaragida jipislashtiramiz, o'tiladigan har bir mashg'ulotgagina emas, balki olib boriladigan har qanday madaniy va ma'rifiy tadbirlar mazmuniga ham bu mafkurani chuqur singdirishimiz kerak. Bu mafkura asosida Sharq qadriyatlari va madaniyati yotadi [11].

Prezidentimiz ta'kidlaganidek “Milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo'shgan olimu fuzalolarnng mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati, qoldirgan ilmiy meros, falsafiy qarashlarni har tomonlama o'rganish darkor. Men bu o'rinda Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi ulug' ajdodlarimizning shu mavzuga daxldor asarlarini nazarda tutayapman”[1,2].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mustaqillik yillarida Respublika uzluksiz ta'lim tizimining muhim bosqichlaridan biri – ta'limi muassasalari, shu jumladan, umumiy o'rta ta'limda o'quv-tarbiya ishlarining bugungi kun talablari darajasida tashkil etish davlat siyosatining ustuvor masalalaridan biri ekanligiga alohida urg'u berilgan. Biroq, o'quvchilar bilan tashkil etilgan suhbat, anketa hamda test so'rovlarining natijalari ularda fuqarolik madaniyatining etarlicha shakllanmaganligini ko'rsatdi.

O'quvchilarda fuqarolik madaniyatining etarli darajada shakllanmaganligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi: mustaqillikka qadar garchi fuqarolik tarbiyasini tashkil etish bir qadar ahamiyat berilgan bo'lsa-da, biroq, aholining fuqarolik madaniyatiga ega bo'lishi totalitar tuzum uchun jiddiy xavf sifatida baholanganligi sababli shaxsda fuqarolik madaniyatini shakllantirish masalasi pedagogik muammo sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotni olib borish jarayonida, o'quvchilarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishda ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni va roli beqiyos ekanligiga ishonch hosil qilindi. Ularning asoslangan reja yoki loyiha asosida olib borilishi, maqsadning aniq belgilanishi, o'quvchilarning faolligiga alohida e'tiborning qaratilishi, ta'lim va tarbiya ishlarining o'qituvchi hamda o'quvchi hamkorligi asosida tashkil etilishi o'quvchilarda fuqarolik madaniyatining muvaffiqiyatli shakllanishiga zamin yaratdi.

TAKLIFLAR

1. Umumiy o`rta ta`lim yuqori sinf o`quvchilarida fuqarolik madaniyatini shakllantirishni aks ettiruvchi metodik qo`llanma (yoki tavsiyanoma)ni yaratish.

2. Umumiy o`rta ta`lim yuqori sinf o`quvchilarida fuqarolik madaniyatini shakllantirish to`g`risidagi bilimlar izchil, uzluksiz, tizimli va maqsadga muvofiq foydalanish chora-tadbirlarini belgilash.

3. “O`quvchilarida fuqarolik madaniyatni shakllantirish” mavzusidagi maxsus ruknni tashkil etish.

4. Viloyatning barcha ta`lim muassasalarida “Umumiy o`rta ta`lim yuqori sinf o`quvchilarida fuqarolik madaniyatni shakllantirish” mavzusida seminarlar, kechalar, anjumanlar o`tkazish.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. - T.: O'zbekiston, 1999. - 189 b.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston», 1997, 112-113-betlar.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. - T.: «Ma'naviyat», 2008. - 174 b.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. TAT. 3-jild. – T.: O'zbekiston, 1996. - 366 b.
5. Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik. T., «O'zbekiston», 1993 y, 8 b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. – T.: O'zbekiston, 2002. – 80 b.
7. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, NMK, 1997. -20-25 b.
8. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, NMK, 1997. -31-61 b.
9. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000. - 30-34 b.
10. Abdullaeva T. Milliy iftixor hissini tarbiyalash //Boshlang'ich ta'lim., 2002. 4-son. – 12–15 b.
11. Avesto va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. – T.: Fan, 2001. – 19 b.
12. Adizov B.R. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish //Mahorat ko'zgusi j., 2000. 1-son. – 11–15 b.
13. Jo'raev R.X., Safarova R.A., Ibragimov X.I. Pedagogika fani Kontseptsiyasi //Xalq ta'limi j., 2004. 5-son. - 8–33 b.
14. Zunnunov A., Xayrullaev M. Pedagogika tarixi.– T.: Sharq, 2000. - 240 b.
15. Matrasul S. Yuksak ma'naviyatli kadrlar tayyorlash faoliyatimiz mezonini // Sharq yulduzi j., 2003. 4-son. -3-5 b.

16. Munavvarov A. Pedagogika (o`quv qo`llanma). - T. O`qituvchi, 1996. – 215 b.
17. Musurmanova O. Ma`naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O`qituvchi, 1996. – 192 b.
18. Tolipov O`.Q., Usmonboeva M.X. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2007. - 261 b.
19. Uzluksiz ta`lim tizimi uchun o`quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish Kontsepsiyasi. Loyiha //Ma`rifat g., 2001 yil, dekabr,.
20. Umumiy o`rta ta`limning DTS va o`quv dasturi //Ta`lim taraqqiyoti j., 1999. 7-maxsus son. – 480 b.
21. Umumiy o`rta va o`rta maxsus kasb-xunar ta`limi jarayonida fanlararo uzviylikni ta`minlash muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferençiyasi materiallari. – T.: Fan va texnologiyalar, 2009. - 46-51 b.
22. Usmonboeva M. Umumiy o`rta ta`lim maktabi o`quvchilarining huquqiy madaniyatini shakllantirish (VIII-IX sinflar misolida): - ped. fan. nomz. diss. avtoref. – T.: 2000. – 22 b.
23. Shamaribxodjaeva G. Kasb-xunar kolleji o`quvchilarida fuqarolik madaniyatini shakllantirish. – T.: TDPU, 2009. – 70 b.
24. Quronov M. Millat ma`naviyati. Jasorat tarbiyasi //Oila j., 2004. – 44-48 b.
25. Quronov M. Mafkura - ta`sirchanlik va uslub /Ma`ruza matni. – T.: Ma`naviyat, 2000. – 9 b.

Internet saytlari

26. <http://www.nuu.uz>
27. <http://www.istedod.uz>
28. <http://www.academy.uz>

I L O V A L A R

1- ilova

FUQAROLARNING DINGA MUNOSABATIDAN QAT'I NAZAR TENG HUQUQLILIGI (4-modda)

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari dinga munosabatidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar. Rasmiy hujjatlarda fuqaroning dinga munosabati ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolarning dinga munosabatiga qarab ularning huquqlarini har qanday cheklash va ularga bevosita yoki bilvosita imtiyozlar belgilash, dushmanlik va adovat uyg'otish yoxud ularning diniy yoki dahriylik e'tiqodi bilan bog'liq his-tuyg'ularini haqoratlash, diniy ziyoratgohlarni oyoq osti qilish qonunda belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Hech kim diniy e'tiqodini ro'kach qilib qonunda belgilangan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishga haqli emas. Qonunga muvofiq bajarilishi majburiy bo'lgan bir vazifani diniy e'tiqodi tufayli boshqasi bilan almashtirishga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi.

GLOBALLASHUVNING IJOBIY TOMONLARI

Globallashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki, u xalqlarning, davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotlarning yaqinlashuvini tezlashtiradi, ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

GLOBALLASHUVNING SALBIY TOMONI

Globallashuvning salbiy tomoni ko'p ming mayda, qoloq erkin guruhlar, va millatlarning madaniyati, tili, rasm-rusumlari jahon bo'ylab kuchayib borayotgan globallashuv jarayonlarida katta millatlar, yirik milliy madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlasha olmasa, o'z-o'zidan faol ijtimoiy-iqtisodiy, lisoniy hayotdan chetga chiqib qoladi.

GLOBALLASHUV NATIJASIDA PAYDO BO'LGAN PLANETAR MUAMMOLAR

- er yuzida yaxlit tenglikni saqlash, termoyadro urushining oldini olish va adolatli xalqaro iqtisodiy tartibot o'rnatish, diniy eskremizm, xalqaro terrorizm muammosi;
- atrof-muhitni samarali muhofaza qilish, ekologiya muammolari;
- aholi soni va tarkibi bilan moddiy va ma'naviy qadriyatlar yaratilishi mutanosibligiga erishish, demografik muammolar;
- er yuzi aholisini zarur oziq-ovqat va quvvat manbalari bilan ishonchli ta'minlash;
- ochlik, qashshoqlik va qoloqlikni tugatish uchun yuksak rivojlanish va ulardan keyin qolgan mamlakatlar o'rtasidagi keskin farqni bartaraf etish;

- xavfli kasalliklarni tugatish;
- inson ma'anviy muhiti sofliğini ta'minlash va boshqalar.


Мустақил фикрлаш

Энг муҳими—



ENG BUYUK JASORAT

Eng buyuk jasorat – bu ma`naviy jasorat. Ma`naviy jasorat, avvalo, o`z yurtiga bo`lgan muhabbat va sadoqatda, uning taqdiri uchun fidoyilik ko`rsatib yashashda namoyon bo`ladi.



TEST SAVOLLARI

1. O`quvchiga milliy o`zlikni anglash tushunchalari nimalarda targ`ib qilish orqali singdiriladi?

- A. badiiy va ilmiy adabiyotlarda, matbuot yangiliklarida
- B. Kino fil,m, spektakl g`oyalari
- V. Turli suxbatlar
- S. Hamma javob to`g`ri

1. Ijtimoiy – milliy o`zlikni anglash tuyg`u tarbiyasining tashkil etilishi natijasida kamol topgan fuqaroning sifatlaridan biri to`g`ri ko`rsatilgan javobni toping.

- A. Milliy o`zlikni anglash burchini bajara olish (o`z vatani, xalqi, ota-onasi oldidagi qarzni xis eta olish) qobiliyatiga egalik
- B. Insonparvarlik
- V. Fidoyilik
- S. To`g`ri so`zlik

2. Ijtimoiy – milliy o`zlikni anglash tuyg`u tarbiyasining tashkil etilishi natijasida kamol topgan fuqaroning sifatlaridan biri to`g`ri ko`rsatilgan javobni toping.

- A. To`g`ri so`z
- B. baynalminallik
- V. Xalqlarga nisbatan ma`suliyatli bo`lish
- S. Ijtimoiy faollik

3. Erkinlik nimaga asoslanadi? To`g`ri javobni ko`rsating.

- A. Erkinlik qonunga asoslanadi.
- B. Erkinlik axloqiy va huquqiy qadriyatga

V. Ma'naviy qadriyatlarga

S. Iqtisodiy – siyosiy islohatlarga

4. Jamiyat ma'naviy hayotida milliy qadriyatga munosabat muammolarining omillari nechta?

A. Ikkita

B. Uchta

V. to'rtta

S. Oltita

5. Jamiyat ma'naviy hayotida milliy qadriyatga munosabat muammolarining beshinchi omili to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

A. Bugungi raxbarlik lavozimida ishlayotgan ayrim shaxslar faoliyatida uchraydigan, qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan salbiy illatlarga barxam berish imkoniyati tug'iladi.

B. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning tiklanishi tufayli yoshlar o'z erkini va mustaqilligini qadrlaydigan, unga hurmat bilan qaraydigan, shu tuyg'uga ko'proq ehtiyoj sezadigan bo'lib boradi. Madaniy merosga nisbatan befarq va loqayd kabi ayrim illatlar barham topadi.

V. Mustaqillik ulug' ne'mat va qadriyat ekanini chuqur idrok etish.

S. Demoratik jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni tiklash.

6. O'zbekiston Respublikasida milliy o'zlikni anglashda o'z millatining ma'naviy o'ziga xosligi deb biluvchilar necha foizni ko'rsatadi?

A. 46.6%

B. 28.9%

V. 16.6%

S. 19.5%

7. O'zbekiston Respublikasida milliy o'zlikni anglashda o'tmish avlodlarining buyuk merosiga tayanish muhim ahamiyat ekanligi deb biluvchilar necha foizni ko'rsatadi?

- A. 16.6%
- B. 28.9%
- V. 21.4%
- S. 19.5%

9. Ma'naviyat targ'ibot va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda qanday turlarda o'tkazish maqsadga muvofiq?

- A. Ma'naviyat darslari jarayonida
- B. Darsdan tashqari vaqtlarda
- V. tadbirlarda
- S. Ta'lim jarayonlarida va darsdan tashqari vaqtlarda

10. Bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qiluvchi bo'lajak o'qituvchi qanday qobiliyatlarga ega bo'lishi kerak?

- A. Talabchanlik, yaratuvchanlik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, targ'ibotchilik, ijodkorlik, kasbiy harakatchanlik
- B. Tashkilotchilik, tashabbuskorlik, targ'ibotchilik, ijodkorlik, kasbiy harakatchanlik
- V. Yaratuvchanlik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, targ'ibotchilik, ijodkorlik, kasbiy harakatchanlik
- S. Kasbiy harakatchanlik